

Millat ma'naviyatining dahosi

GIM fakulteti xotin qizlar kengashining tashabbusi va fakultet Yoshlar ishlari bo'yicha dekan o'rinosini bilan hamkorlikda 2021-yil 9-fevral kuni 2-son TTJ "Alisher Navoiy milliy ma'naviyatimiz dahosi" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirda ishtirok etgan Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifikat bo'limi boshlig'i Z. Haydarov Mir Alisher Navoiy qoldirgan boy ijodiy merosni o'rganish va targ'ib qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib o'tdi.



Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy va vatanparvarlik g'oyalari, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan munosib va mustahkam o'rin egallagan, - deydi fakultet dekani B. Norov - Alisher Navoiy adabiy merosini tizimli va muntazam ravishda o'rganish, targ'ib qilish biz uchun ham sharaf, ham burch, deb bilishimiz kerak. Tadbirda fakultet talaba qizlar tomonidan aytilgan Navoiyning g'azal, ruboilyari va kuy, qo'shiqlar barchaga manzur bo'ldi. Tadbirni o'tkazishdan maqsad Navoiy dostonlarini chuqr o'rganish, ularda ilgari surilgan umuminsoniy g'oyalarni yoshlar orasida keng targ'ib qilish, Navoiy asarlari orqali yoshlarda Vatanga muhabbat hissini shakllantirishdan iborat.



TIQXMMI matbuot xizmati